



## “SAXOVAT VA “MURUVVAT UYLARIDA YASHOVCHI KEKSALARNI IJTIMOIY REABLITATSIYA QILISH .

*Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali*

*Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Amonova Dilnoza Shermat qizi*

*Ergasheva Durдона Kenjaboy qizi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashovchi keksalarning ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga qayta moslashtirish masalalariga bag'ishlangan. Unda “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashovchi keksalar orasida sotsiologik tadqiqot olib borilib tadqiqot natijalari, asosida ilmiy xulosalar taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy meros, keksalar, tibbiy xizmat, tibbiy va ijtimoiy, reabelitatsiya, ijtimoiy muhofaza, moddiy va ma'naviy yordam.

### SOCIAL REHABILITATION OF THE ELDERLY LIVING IN "SAKHAVAT" AND "MURUVAT" HOUSES.

**Abstract.** This article is devoted to the issues of social rehabilitation of the elderly living in "Sakhavat" and "Muruvat" houses and their reintegration into society. In it, a sociological study was conducted among the elderly living in "Sakhavat" and "Muruvat" houses, and suggestions and recommendations were made based on the results of the research.

**Key words:** spiritual heritage, elderly, medical service, medical and social, rehabilitation, social protection, material and moral support.

Xalqimizning boy ma'naviy merosiga nazar solsak, azaldan qariyalarni qadrlab, e'zozlab, hurmatini joyiga qo'yib, qadriyat darajasida e'tirof etib kelingan. Ajdodlarimiz “Qarisi bor uyning parisi bor” deb bejiz aytishmagan. Sharqda qariyalarni qadrlash o'zbekona qadriyat bo'lib, milliy mentalitet darajasiga ko'tarilgan, kattalarni e'zozlash, ularning pand-nasihatlariga amal qilish kabi fazilatlar azal-azaldan mavjud. Chunki yoshlar keksalarning o'gitidan, nasihatlaridan, namunali hayotidan xulosa chiqarib ibrat oladilar. Zero, qariyali uy-maktabdir, deb bejiz aytilmagan. O'zbekistonda keksalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash, qadrlash, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar



ko'lamini kengaytirish borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021- yil 25-martdagi PF-6195-son "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi Farmonlari qabul qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-maydagi 326-son "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman va shaharlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi" hamda 2020-yil 28-maydagi 340- son "Keksalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorlari bilan keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. Aynan mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022- yil 15-martdagi PQ-167-son "Nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bugungi kunda keksalar va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Mazkur qarorda "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin" shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan keksalar va nuroniylar holidan doimiy xabar olish tizimini tashkil qilish hamda ijtimoiy himoya dasturlari doirasida davlat xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash" nazarda tutilgan.<sup>1</sup> Bugungi kunda "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashovchi keksalarga kompleks yordam ko'rsatish, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni uyushtirish va ularning hayotida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni sotsiologik tahlil qilish, keksalarni reabilitatsiya qilishda ishtirok etuvchi davlat muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlarning samaradorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladigan tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida sotsiologik tadqiqot olib borildi. "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari, Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun hududiy reabilitatsiya markazlari, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriy va pansionatlar, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari, Odam savdosi

---

<sup>1</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>



jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi tashkil etildi. Bundan tashqari "Saxovat va muruvvat" uylarida yashayotgan qariyalar bilan tadqiqot olib borilib ular orasida so'rovnoma o'tkazildi. Respondentlar 60 yoshdan katta erkaklar, 55 yoshdan katta ayollar orasida amalga oshirildi. Respondentlarning ijtimoiy kayfiyatini aniqlash maqsadida ular "Siz ushbu muassasaga kelishingizning asosiy sababi nima?" deb savol berilganda, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lganligi sababli 20,2% erkaklar, 24,9 % ayollar "Saxovat" uylariga kelganliklarini bildirganlar. Respondentlarning 40% erkaklari va 29,5% ayollarning yaqin qarindoshlari, shu jumladan, farzandlari yoki qarindoshlari yo'qligi va ularning ijtimoiy holatlari yolg'iz keksalar ekanligini ko'rsatgan.<sup>2</sup> "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida reabilitatsiya qilinayotgan keksalarga ko'rsatilayotgan tibbiy ijtimoiy xizmatlar tarkibiga kiradigan, ijtimoiy himoya, huquqiy xizmat, tibbiy ko'rik va tibbiy xizmatlar, rejali sog'lomlashtirish va statsionar davolashga respondentlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'rganildi. Bundan tashqari qariyalarning o'z huquqlarini bilishlari uchun ularga huquqiy savodxonlik darslari o'tilishi kerakligi ular tomonidan so'zga qo'yildi. "Saxovat" uylariga yuridik xizmat ko'rsatuvchi yurist shtatini joriy qilish maqsadga muvofiq deb o'ylashlarini ko'zda tutishdi. "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashovchi keksalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va tibbiy xizmat ko'rsatish, rejali sog'lomlashtirish va statsionar davolash, ma'naviy va ma'rifiy ishlarning holati, "Saxovat" uylarining binolari va binolardagi, mavjud jihozlar, jumladan, mebellar, anjomlar, tozalik va xonalar harorati bilan bog'liq yashash sharoitlardan qoniqishlari, shaxsiy iltimoslarini bajarilishiga oid fikrlarini o'rganish, yolg'iz keksalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar, reabilitatsiyadan so'ng keksalarning ijtimoiy holatidagi o'zgarishlarga oid masalalar tahlil etildi. Respondentlarning tadqiqot davomida bildirilgan fikrlarini inobatga olgan holda "Saxovat" uylarida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tartibini va mexanizmlarini ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahlil qilgan holda va oliy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy ish yo'nalishida tayyorlanayotgan kadrlar bo'yicha kafedralar bilan hamkorlikni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Reabilitatsiya qariyalarga o'zlarining kundalik hayotida imkon qadar mustaqil bo'lishlariga yordam berish va ularga ta'lim olish, mehnat va bo'sh vaqtni o'tkazish, shuningdek, ularga g'amxo'rlik qilish kabi muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarishga qaratilgan kompleks jarayon

<sup>2</sup> . Sodiqova Sh. Sotsiologiya fanlar doktori, O'quv qo'llanma darslik . Tosh.2023-yil



hisoblanadi. “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida keksalarga faqat tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish bilan cheklanib qolmasdan keksalarni tibbiy reabilitatsiya qilishga qaratilgan ishlar ham amalga oshiriladi. Tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya (lotin. rehabilitatio, tiklanish ma’nosini anglatadi) – kasallik yoki shikastlanish natijasida buzilgan yoki butunlay yo’qolgan, normal ruhiy holatni maksimal darajada tiklash yoki qoplashga qaratilgan tibbiy, pedagogik, psixologik va boshqa turdagi chora-tadbirlar majmuyi hisoblanadi. “Saxovat” uylaridagi keksalarga “Siz reabilitatsiyadan keyin nima qilmoqchisiz?” degan savol bilan murojat qildik? respondentlarning 79,9% “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida qolishini afzal ko’raman deb javob berganlar. Bu “Saxovat” va “Muruvvat” uylaridagi deyarli 80% mustaqil hayot sharoitida yashay olmasliklarini bildiradi. Respondentlarning 10% i mustaqil hayotda yashashga o’zlarida ishonch borligini bildirganlar. Bundan ko’rinib turibdiki qariyalarimizning ko’pchiligida o’zida ishonchi yo’q, erkin hayot kechira olmasligini jamiyatga o’zi mustaqil moslashib keta olmasligi haqida aytib o’tishgan. Tadqiqotimizning asl maqsadi ham shundan iborat edi o’zi aslida. Qariyalarimizni jamiyatga moslashtirib ularni faolligini oshirish, ular uchun turli tadbirlar, ko’ngil ochar musiqiy dasturlar tashkil qilish, bir zum bo’lsada yoshlikka qaytishlari uchun ularni yoshliklarini esga olishlariga yordam berish, kino teatrlarga olib borish maqsadga muvofiq edi. Agar reabilitatsiyaning maqsadi keksalarni mustaqil hayot sharoitida yashashlariga ko’maklashish bo’lsa, “Saxovat” uylaridagi reabilitatsiya ishlari faqatgina 10% darajada natija bermoqda deb aytish mumkin. “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashovchi keksalarning tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi masalasini o’rganish natijalari quyidagicha xulosa kelish mumkin: – “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan keksalarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish amaliyotiga doir normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq; – hozirda “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashovchi keksalarning ilmiy, kasbiy, tajribaviy va malakaviy kompetensiyalaridan yetarli darajada foydalanmayotganligi va bu borada ularning e’tibordan chetda qolayotganligi hamda keksalarni bezovta qilayotgan ijtimoiy muammolarni aniqlab borish; – qadriyatlar tushunchasi, avlodlar almashinuvi, globallashtiruvning jamiyat hayotiga kirib kelishi, keksa avlod kishilariga nisbatan munosabatning o’ziga xos ko’rinishga ega bo’lishi ularning manfaat va huquqlarini boshqa fuqarolik institutlar orqali ta’minlash va yangicha yondashuvni talab etayotganligi bois keksalarni reabilitatsiya qilishda ishtirok etayotgan barcha muassasalardagi reabilitatsiya amaliyoti, boshqaruv mexanizmalari, reabilitatsiya usullari va ijtimoiy kuzatib borishda jahon tajribasini o’rganish va O’zbekiston sharoitiga moslashtirish



zaruratini keltirib chiqaradi; – “Saxovat” va “Muruvvat” uylari faoliyatining shaffofligi, muassasalar ishchi-xodimlarining professionallik darajasi yuqori ekanligini bildiradi; – demografik vaziyat va oilaviy turmush tarzining o’zgarishi o’z navbatida keksalarni qadrlash va ularga e’tiborni kuchaytirish, ularda ijtimoiy reabilitatsiya jarayonlarini amalga oshirish, sog’lom turmush tarzini shakllantirish bo’yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar berish mumkin : – “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilinayotgan keksalarning ruhiy holatida nomotadillik bo’lganligi sababli ishchi xodimlar va reabilitatsiya qilinayotgan keksalarning yaqin qarindoshlari orasida tadqiqot so’rovlarini qo’llash orqali o’rganish; – “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan qariyalarning yaqin a’zolari bilan so’rovnoma o’tkazganimizda ulardan, “ saxovat va muruvvat” uylari faoliyati haqida so’raganimizda ulardan ijobiy javoblar oldik. Lekin aksariyat respondentlarning berayotgan javoblari odamning ko’nglini xira qiladi ba’zida. Ularning javoblarini tinglaganizda bunaqa “Saxovat “ uylarini ko’paytirish kerak emish, va u yerdagi qariyalarga berilayotgan nafaqalar miqdorini oshirish kerak ekan ularning ta’kidlashicha. Yana qariyalarning pensiyalarini keraksiz sarflab qo’ymasliklari uchun pensiyalarining ma’lum miqdori ularning yaqinlariga berilishi kerakligi haqida ham aytib o’tishgan. Jamiyatimizda bunaqa insonlar kam emas, o’z manfaatlari yo’lida har qanday siyosat ishlab chiqishadi o’zlaricha. To’g’rida uylarida shunday sharoitlari bo’la turib ota onalarini bunday uylarga tashlab ketgan farzandlardan yana nima ham kutish mumkin? Qariganda farzandlari bo’la turib, ulardan mehr e’tibor ko’rish evaziga ular uchun umuman begona bo’lgan insonlardan yaxshilik ko’rishlari bu bizning o’zbek xalqimiz uchun yaxshi ish emas aslida. SHunday qilib xulosa o’rnida shuni aytish lozimki “Saxovat va Muruvvat “, uylarida keksalarga ko’rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tarkibiga kiradigan, ijtimoiy himoya, huquqiy xizmat, tibbiy ko’rik va tibbiy xizmatlar, rejali sog’lomlashtirish va statsionar davolashga respondentlar tomonidan bildirilgan fikrlarni o’rganish asosida keksalarga psixolog xizmatini tashkil qilishga e’tibor berish; – “Saxovat” va “Muruvvat” uylariga yuridik xizmat ko’rsatuvchi yurist shtatini joriy qilish; – “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni faollashtirish; – keksalarning ta’lim olish ehtiyoji, ularni ta’lim olishga ijtimoiy muhit ta’sirining psixologik pedagogik tavsiflari ishlab chiqish; – jamiyatdagi o’zgarishlarni hisobga olib keksalarning turmush tarzi, ularning faoliyati, hayotiy ehtiyojlari, manfaatlari, qarashlari, maqsadlari, qadriyatlarini,



shuningdek, xulq-atvor tarziga ularning yoshi bilan bog'liq o'zgarishlar qanday ta'sir ko'rsatishini sotsiologik tahlil qilish va insonning keksayish jarayonini hisobga olib, bu borada zarur imkoniyatlarni yaratishga ko'maklashadigan ijtimoiy-sotsiologik tizimni yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh .M.Mirziyoyevning 2022 yil 15martdagi PQ -167-сон “Nuroniylarni har tomonlama qo'llab –quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori. “
2. Sodiqova SH.M. Qarisi bor uyning parisi bor. Risola.- Toshkent: “Ma'naviyat”,2015 yil. B-98
3. Sodiqova Sh. Sotsiologiya fanlar doktori, O'quv qo'llanma darslik . Tosh.2023-yil
- 4.